



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI  
BUYRUG'I**

---

2024-yil 21-05 123-son

Toshkent sh.

**Toshkent arxitektura-qurilish  
universitetda korrupsiyaga qarshi  
kurashish "Komplayens-nazorat"  
tizimini takomillashtirish to'g'risida**

"Korruptsiyaga qarshi kurashish menejment tizimlaridan foydalanish bo'yicha talablar va tavsiyalar" xalqaro standart talablari va tavsiyalarini inobatga olgan holda, Toshkent arxitektura-qurilish universitetida korruptsiyaga qarshi komplayens-nazoratni takomillashtirish hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2021-yil 26-avgustdaggi 373-sonli va 2021-yil 22-oktabrdagi 443-sonli buyrug'lari ijrosini ta'minlash maqsadida

**B U Y U R A M A N:**

1. "Korruptsiyaga qarshi kurashish menejment tizimlaridan foydalanish bo'yicha talablar va tavsiyalar" xalqaro standart talablari va tavsiyalarini inobatga olgan holda, Toshkent arxitektura-qurilish universitetida korruptsiyaga qarshi komplayens-nazoratni takomillashtirish hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2021-yil 26-avgustdaggi 373-sonli va 2021-yil 22-oktabrdagi 443-sonli buyrug'lari ijrosining tegishli topshiriqlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

"Toshkent arxitektura-qurilish universitetning korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati" 1-ilovaga;

"Toshkent arxitektura-qurilish universitetida korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyati" 2-ilovaga;

"Toshkent arxitektura-qurilish universitetida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom" 3-ilovaga;

"Toshkent arxitektura-qurilish universitetida aloqa kanallari orqali korruptsiyaviy hatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti" 4-ilovaga;

"Xodimlarning odob-axloq va korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnomasi" 5-ilovaga;

"Toshkent arxitektura-qurilish universitetida kontragentlarni tekshirishga oid

Yo'riqnomalar” 6-ilovaga;

“Toshkent arxitektura-qurilish universitetida ishga qabul qilinayotgan nomzodlami tekshirish bo'yicha Yo'riqnomalar” 7-ilovaga;

“Toshkent arxitektura-qurilish universitetida korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillaming samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti” 8-ilovaga;

“Toshkent arxitektura-qurilish universitetida korrupsiyaga qarshi tizimining holati to'g'risidagi hisobotini shakillantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom” 9-ilovaga;

“Toshkent arxitektura-qurilish universiteti xodimlarining korrupsiyaviy hatt-harakatlari va odob-oxloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha Reglament” 10-ilovaga;

3. Belgilansinki, mazkur buyruq bilan tasdiqlangan hujjatlar:  
Universitet tuzilmasining barcha tizimlari (fakultetlar, bo'limlar, markazlar) uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha majburiy hisoblanadi;

4. Universitetning Talabalar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlari  
prorektori  
(A.D. Metyakubov), Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat”  
tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i (M.Isakdjanov), Matbuot kotibi  
(M.Niyozova)ga:

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hujjatlar mazmun-mohiyatini universitet  
veb-sayti va boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali keng jamoatchilikka yetkazish;

Universitet rahbar xodimlari, professor-o'qituvchilari va talaba-yoshlarga  
korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha asosiy ichki idoraviy hujjatlar mazmun-  
mohiyatini tushuntirish ishlarini tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

5. Devonxona va murojaatlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i  
v.b. (G.Kalilayeva)ga ushbu buyruqni tegishli ma'sullarga yetkazilishini ta'minlash  
vazifasi yuklatilsin.

6. Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Rektor v.v.b.



B.Tulaganov

NUSXA ASLIGA  
TO'G'RI